Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 91
TABIIY FANLAR

AHOLI GEOGRAFIYASIDA HUDUDIY TASHKIL ETISH VA URBANIZATSIYA NAZARIYALARINING ILMIY ASOSLARI

Shaxbozbek Qaxramon o'g'li Qarshiyev*
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
✉ shaxbozbek@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada aholi geografiyasining nazariy-metodologik shakllanish bosqichlari hamda aholi joylanishini geografik tadqiq etishning zamonaviy ilmiy yondashuvlari tahlil qilingan. *Unda antropogeografiya*, possibilizm, migratsiya nazariyalari, markaziy o'rinlar nazariyasi, hududiy tashkil etish konsepsiyasi, urbanizatsiya nazariyalari va geodemografik yondashuvlarning ilmiy mazmuni ochib berilgan. Shuningdek, jahon, MDH va O'zbekiston geografiya maktablari olimlarining ilmiy qarashlari qiyosiy tahlil qilinib, ularning aholi joylanishini o'rganishdagi metodologik ahamiyati baholangan. *Tadqiqot natijasida* aholi geografiyasining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari umumlashtirilib, hududiy tadqiqotlarda kompleks geografik yondashuvning ustuvorligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar

aholi geografiyasi, aholi joylanishi, antropogeografiya, possibilizm, geografik determinizm, migratsiya nazariyasi, markaziy o'rinlar nazariyasi, hududiy tashkil etish, urbanizatsiya, geodemografiya, manzilgohlar tizimi, geografik metodologiya.

DOI: 10.5281/zenodo.21835604

Kirish. Jahonda aholi manzilgohlarining aksariyati qulay tabiiy geografik sharoitga ega bo'lgan hududlarda tashkil etilgan bo'lib, aholi sonining ortishi hisobiga yangi, lekin tabiiy geografik sharoiti yashash uchun u qadar qulay bo'lmagan hududlar miqdori ortib bormoqda. Buning ustiga qulay tabiiy geografik sharoitga ega bo'lgan hududlarni kishilik jamiyati fan va texnikaning imkoniyatlaridan foydalanib, tobora chuqurroq o'zlashtirmoqda. Bu jarayonda hududlarning tabiiy geografik imkoniyatlarini to'liq hisobga olinmasligi aholi maskanlarida hududlarga xos ijtimoiy-ekologik muammolarni yuzaga keltirmoqda. Jumladan, BMTning 2030-yilgacha barqaror rivojlanish bo'yicha dasturida «Shaharlar va aholi punktlarining ochiqligini, xavfsizligini, umri boqiyligi va barqarorligini ta'minlash» vazifalari belgilangan [17]. Mazkur vazifalarning yechimida tabiiy geografik imkoniyatlari qulay bo'lgan, hududlari cheklangan mintaqalarda kompleks geografik tadqiqotlarni amalga oshirish, hududlarda aholini optimal joylashtirish asosidagi kompleks tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Jahonda mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarga, ayniqsa, aholi soni ortib borayotgan, aholi maskanlarning qulaylik darajasi borgan sari yomonlashib borayotgan hududlar monitoringini olib borish, ularning tabiiy geografik shiroitiga zarar yetkazmagan holda ijtimoiy-ekologik vaziyatini yaxshilashga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Shuningdek, yangi aholi manzilgohlarini joylashtirishda ularning qulay tabiiy geografik imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlash, bunday hududlarni aniqlashda zamonaviy GAT texnologiyalari orqali ma'lumotlar bazasini yaratish, aholi sonining tabiiy demografik imkoniyatlarga mutanosibligini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar muhim hisoblanadi.

Natija va muhokamalar. Aholi joylanishini ilmiy tadqiq etish ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, uning nazariy-metodologik bazasi geografiya, demografiya, iqtisodiyot va sotsiologiya fanlari chorrahasida shakllangan. Mazkur maqolada aholi geografiyasining fan sifatida shakllanishi, joylanishning asosiy nazariyalari, hududiy tashkil etish va urbanizatsiya konsepsiyalari, geodemografik yondashuvlar hamda zamonaviy raqamli

tadqiqot metodlari tahlil etiladi. Tahlillar davomida jahon va O‘zbekiston olimlarining qarashlari alohida ko‘rib chiqilib, har bir nazariy yondashuvga nisbatan tanqidiy munosabat bildiriladi va muallifning metodologik pozitsiyasi asoslanadi.

Aholi geografiyasi – aholining hudud bo‘ylab taqsimlanishi, soni va tarkibining hududiy tafovutlari, manzilgohlar tizimi hamda aholi harakati (tabiiy va mexanik)ning fazoviy qonuniyatlarini o‘rganadigan iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning tarmoq fanidir. Uning predmeti aholining hududiy tashkil etilishi, ya’ni aholi va u yashaydigan geografik makon o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tizimidir. A.S. Soliev ta’kidlaganidek, aholi geografiyasi “ijtimoiy geografiyaning markaziy bo‘g‘ini” bo‘lib, u tabiiy va iqtisodiy geografiya tushunchalarini o‘zida birlashtiradi [14].

Fanning ilmiy poydevori XIX asr oxiri XX asr boshlarida shakllana boshladi. Nemis geografi F.Ratsel “Antropogeografiya” (Anthropogeographie) tushunchasini ilmiy muomalaga kiritib, inson va tabiiy muhit o‘rtasidagi bog‘liqlikni geografik o‘rganishga asos soldi [5]. Fransuz geografi P. Vidal de la Blache esa “hayot tarzi” (genre de vie) konsepsiyasini ilgari surib, aholi joylanishini tabiiy sharoit emas, balki inson faoliyati va madaniyatining mahsuli sifatida talqin qildi; bu bilan u qattiq geografik determinizmga muqobil bo‘lgan “possibilizm” oqimiga asos soldi [7]. Bizning nazarimizda, aynan possibilizm yondashuvi aholi joylanishini bir tomonlama (faqat tabiiy yoki faqat ijtimoiy) izohlash xatosidan saqlaydi va Qashqadaryo kabi tabiiy sharoiti keskin tafovutli mintaqalar uchun ayniqsa metodologik jihatdan samaralidir.

Aholi migratsiyasining ilk ilmiy qonuniyatlarini E.G. Ravenstein o‘zining mashhur “Migratsiya qonunlari” asarida bayon etgan bo‘lib, u masofa, yo‘nalish va bosqichlilikka oid umumlashmalarini taklif qildi [6]. Ravenstein qonunlari bugungi kunda ham migratsion oqimlarni dastlabki tahlil qilishda metodologik mo‘ljal bo‘lib xizmat qiladi, biroq ular industrializatsiyadan oldingi davr uchun ishlab chiqilgani bois zamonaviy mehnat migratsiyasi (ayniqsa xalqaro va vaqtinchalik migratsiya) hodisalarini to‘liq tushuntirib bera olmaydi.

Sovet iqtisodiy geografiyasida aholi geografiyasining nazariy asoslari N.N. Baranskiy, R.M. Kabo, V.V. Pokshishevskiy va Yu.G. Saushkin nomlari bilan bog‘liq. N.N. Baranskiy iqtisodiy geografiyaning rayonlashtirish va hududiy mehnat taqsimoti tamoyillarini ishlab chiqib, shaharlarni hududning “tayanch karkasi” (опорный каркас) sifatida talqin qildi [9]. V.V. Pokshishevskiy esa aholi geografiyasini mustaqil fan sifatida shakllantirib, aholi joylanishi va migratsiyasini hududiy tahlil qilishning uslubiy asoslarini yaratdi [13]. Mazkur maktabning kuchli jihati – aholi joylanishini ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganishi bo‘lsa, cheklovi – rejali iqtisodiyot sharoitida bozor mexanizmlari va aholining erkin hududiy harakatini yetarlicha hisobga olmaganligidir.

O‘zbekistonda aholi geografiyasi maktabining shakllanishi Z.M. Akramov, M.K. Qoraxonov, A.S. Soliev, M.R. Nazarov, Z.N.Tojiyeva singari olimlar faoliyati bilan bog‘liq. A.S. Soliev rahbarligida respublika aholisi joylanishi, shaharlar tizimi va qishloq manzilgohlari geografiyasiga oid yirik tadqiqotlar amalga oshirildi [15]. Mahalliy maktabning o‘ziga xosligi shundaki, u aholi joylanishini O‘rta Osiyoning vohaviy (oazis) tipidagi joylashuvi, sug‘orma dehqonchilik va suv omilining hal qiluvchi roli kontekstida o‘rganadi. Muallifning fikricha, aynan shu vohaviy-irrigatsion paradigma Qashqadaryo viloyati aholi joylanishini tadqiq etishda eng adekvat nazariy ramka hisoblanadi.

Aholi joylanishi va manzilgohlar tizimining asosiy nazariyalari. Aholi joylanishini geografik tahlil qilishning eng nufuzli nazariy konsepsiyasi nemis geografi W. Christaller tomonidan ishlab chiqilgan markaziy o‘rinlar nazariyasi (Theorie der zentralen Orte)dir. W.Christaller manzilgohlarni atrofdagi hududni tovar va xizmatlar bilan ta’minlovchi “markaziy o‘rinlar” sifatida talqin qilib, ularning ierarxik tartibda, geometrik qonuniyat (olti burchakli — geksagonal panjara) asosida joylashishini asoslab berdi [1]. Nazariyaning markaziy tushunchalari “mahsulot/xizmat radiusi” (диапазон) va “chegaraviy talab” (порог) bo‘lib, ular markaziy o‘rinlar tarmog‘i tuzilishini belgilaydi.

A. Lyosh Christaller g‘oyalarini iqtisodiy nuqtai nazardan rivojlantirib, bozor zonalarining iqtisodiy mantig‘i va makon iqtisodiyotining umumiy nazariyasini yaratdi [4]. Markaziy o‘rinlar nazariyasi xizmat ko‘rsatish markazlari ierarxiyasini tahlil qilishda hozirgacha samaralidir, ammo uning klassik ko‘rinishi bir jinsli (izotrop) tekislik, bir xil sotib olish qobiliyati va erkin bozor sharoitlarini nazarda tutadi. Muallifning baholashicha, Qashqadaryo viloyati sharoitida bu shartlar to‘liq bajarilmaydi: relyefning keskin tafovuti (Hisor

tog‘ tizmasidan Qarshi cho‘ligacha), suv ta’minotidagi notekislik va ma’muriy markazlashuv geksagonal modelni jiddiy buzadi. Shu sababli nazariya “sof” shaklda emas, balki tabiiy va ma’muriy omillarga moslashtirilgan (modifikatsiyalangan) ko‘rinishda qo‘llanilishi lozim.

Manzilgohlar tizimining miqdoriy qonuniyatini tavsiflashda G. Zipf taklif etgan “rang-o‘lcham” qoidasi (rank-size rule) muhim o‘rin tutadi; unga ko‘ra shahar aholisi soni uning ierarxiyadagi rangiga teskari mutanosib bo‘ladi [8]. Mazkur qoida shaharlar tizimi muvozanatini baholashda foydali ko‘rsatkich bo‘lib, undan chetlanish (masalan, bitta shaharning haddan tashqari yetakchiligi “primat-shahar” hodisasi) tizimdagi disproporsiyani aniqlashga imkon beradi. Qashqadaryo viloyatida Qarshi shahrining yetakchilik darajasini aynan shu metodologiya orqali baholash mumkin (kelgusi tadqiqotlarda taxlil etiladi).

Hududiy rivojlanishning notekisligini izohlovchi yana bir nufuzli konsepsiya J.Friedmann tomonidan asoslangan “markaz–chekka” (core–periphery) nazariyasidir [2]. Unga ko‘ra, rivojlanish dastlab ayrim markaziy zonalarda jamlanadi, chekka hududlar esa resurs va aholini markazga “oqizib beruvchi” qoloq zonaga aylanadi. Mazkur nazariya viloyat ichidagi “Qarshi aglomeratsiyasi–tog‘oldi/cho‘l periferiyasi” qutblanishini tushuntirishda metodologik mo‘ljal bo‘lib xizmat qiladi.

Hududiy tashkil etish konsepsiyasi. Aholi joylanishini tizimli o‘rganishning metodologik o‘zagi – jamiyatni hududiy tashkil etish (территориальная организация общества) konsepsiyasidir. Mazkur yondashuv aholi, ishlab chiqarish, infratuzilma va tabiatdan foydalanishni yagona hududiy tizim sifatida ko‘rib chiqadi. B.S. Khorev hududiy tashkil etishning yaxlit nazariyasini ishlab chiqib, “aholi joylanishining yagona tizimi” (ECP) g‘oyasini ilgari surdi [16]. Sovet geografiyasida N.N. Kolosovskiy esa hududiy-ishlab chiqarish komplekslari (ТПК) va energiya-ishlab chiqarish sikllari nazariyasini yaratdi, bu esa ishlab chiqarishni joylashtirishni aholi joylanishi bilan bog‘lashga imkon berdi [10].

Mazkur konsepsiyaning ahamiyati shundaki, u aholi joylanishini izolyatsiyada emas, balki ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va hududiy mehnat taqsimoti bilan uzviy bog‘liqlikda tadqiq etishni talab qiladi. Ayni paytda, tanqidiy nuqtai nazardan, sovet davri hududiy tashkil etish modellari ko‘proq rejali boshqaruvga moslangan bo‘lib, ular bozor sharoitidagi o‘zini-o‘zi tashkil etish (self-organization) jarayonlarini, aholining erkin tanlovi va investitsion oqimlarning hududiy yo‘nalishini cheklangan darajada hisobga oladi. Shuning uchun mazkur konsepsiyani zamonaviy O‘zbekiston sharoitida qo‘llashda uni bozor mexanizmlari va davlat hududiy siyosati (masalan, mintaqalarni rivojlantirish dasturlari) bilan to‘ldirish zarur.

Urbanizatsiya nazariyalari. Urbanizatsiya – aholi joylanishi tuzilishidagi eng muhim zamonaviy jarayon bo‘lib, u shahar aholisi ulushining o‘sishi, shahar turmush tarzining tarqalishi va shaharlar tarmog‘ining murakkablashuvini o‘z ichiga oladi. J. Gibbs urbanizatsiyaning besh bosqichli modelini taklif etib, shahar va qishloq aholisi o‘sish sur’atlari nisbatiga ko‘ra urbanizatsiya jarayonining evolyutsiyasini tavsifladi [3]. Mazkur model ayrim mintaqalarda urbanizatsiya qaysi bosqichda ekanini diagnostika qilishga imkon beradi.

Sovet va MDH geografiyasida shaharlar geografiyasi (geourbanistika) yo‘nalishi G.M. Lappo va Ye.N. Pertsik asarlarida rivojlantirildi. G.M. Lappo shaharlarni hududning “tayanch karkasi” elementlari sifatida tahlil qilib, aglomeratsiyalar shakllanishi qonuniyatlarini ochib berdi [11], Ye.N. Pertsik esa geourbanistikaning nazariy-uslubiy asoslarini umumlashtirdi [12]. O‘zbekiston sharoitida urbanizatsiyaning o‘ziga xos jihati uning nisbatan past darajasi, “yashirin” (latent) urbanizatsiya hodisasi va shahar maqomini olgan, biroq turmush tarzi bo‘yicha qishloqqa yaqin qoluvchi aholi punktlarining mavjudligidir. Muallifning fikricha, Qashqadaryo viloyatida urbanizatsiyani baholashda rasmiy ma’muriy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda funksional (bandlik tarkibi, infratuzilma, kunlik migratsiya) mezonlardan ham foydalanish zarur, aks holda urbanizatsiya darajasi noto‘g‘ri baholanishi mumkin.

Xulosa. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, aholi geografiyasi bugungi kunda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanib, uning nazariy-metodologik asoslari turli ilmiy maktablar tomonidan bosqichma-bosqich takomillashtirilgan. Antropogeografiya, possibilizm, migratsiya nazariyalari, markaziy o‘rinlar nazariyasi, hududiy tashkil etish konsepsiyasi hamda urbanizatsiya nazariyalari aholi joylanishining hududiy qonuniyatlarini izohlashda o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi ilmiy yondashuvlar hisoblanadi.

Jahon, MDH va O‘zbekiston geografiya maktablari olimlarining ilmiy merosi aholi joylanishiga ta'sir

etuvchi tabiiy, demografik, iqtisodiy va ijtimoiy omillarni kompleks baholash imkonini yaratadi. Ayniqsa, O‘zbekiston sharoitida vohaviy joylashuv, suv resurslari, irrigatsiya tizimi va hududiy mehnat taqsimoti aholi geografiyasining o‘ziga xos metodologik yo‘nalishlarini shakllantirgan.

Hozirgi globallashuv, urbanizatsiya va raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan davrda aholi joylanishini tadqiq etishda geografik axborot tizimlari (GAT), masofadan zondlash ma'lumotlari, geodemografik modellashtirish va fazoviy tahlil usullaridan keng foydalanish ilmiy tadqiqotlarning aniqligi va amaliy ahamiyatini oshirmoqda. Shu bois aholi geografiyasining klassik nazariyalarini zamonaviy raqamli metodlar bilan uyg‘unlashtirish hududlarni barqaror rivojlantirish, aholini oqilona joylashtirish hamda mintaqaviy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Christaller W. Die zentralen Orte in Süddeutschland. – Jena: Gustav Fischer, 1933. – 331 S.
2. Friedmann J. Regional Development Policy: A Case Study of Venezuela. – Cambridge: MIT Press, 1966. – 279 p.
3. Gibbs J.P. The Evolution of Population Concentration // Economic Geography. – 1963. – Vol. 39, No. 2. – P. 119–129.
4. Lösch A. Die räumliche Ordnung der Wirtschaft. – Jena: Gustav Fischer, 1940. -348 p.
5. Ratzel F. Anthropogeographie. – Stuttgart: J. Engelhorn, 1882. -506 p.
6. Ravenstein E.G. The Laws of Migration // Journal of the Statistical Society of London. – 1885. – Vol. 48, No. 2. – P. 167–235.
7. Vidal de la Blache P. Principes de géographie humaine. –Paris: A. Colin, 1922. -327 p.
8. Zipf G.K. Human Behavior and the Principle of Least Effort. – Cambridge: Addison-Wesley, 1949. – 573 p.
9. Баранский Н.Н. Избранные труды: Становление советской экономической географии. – М.: Мысль, 1980. – 287 с.
10. Колосовский Н.Н. Теория экономического районирования. – М.: Мысль, 1969. – 336 с.
11. Лаппо Г.М. География городов. – М.: Владос, 1997. – 480 с.
12. Перцик Е.Н. Геоурбанистика. – М.: Академия, 2009. – 432 с.
13. Покшишевский В.В. География населения СССР. – М.: Просвещение, 1971. – 174 с.
14. Солиев А. Иқтисодий ва ижтимоий география. – Т.: Университет, 2014. – 280 б.
15. Солиев А., Назаров М., Қурбонов Ш. Ўзбекистон ҳудудларининг ижтимоий-иқтисодий ривожланиши. – Т.: Мумтоз сўз, 2010. -300 б.
16. Хорев Б.С. Территориальная организация общества. – М.: Мысль, 1981. – 320 с.
17. Повестки дня в области устойчивого развития на период до 2030 года //Эл. доступ: http:// www.uz/undp/org/content/ uzbekistan.ru